



## KLASSIK YUNON MADANIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19534377>

**Ismatullayev Farxod Odiljonovich**

*O'zMPU v.b.professori.t.f.d. (DSc)*

**Farmonov Sardorbek Xabibullo o'g'li**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tarix fakulteti*

*1-bosqich talabasi [safarovxabibulla502@gmail.com](mailto:safarovxabibulla502@gmail.com)*

**Anotatsiya:** *Jahon xalqlari tarixida qadimdan turfa madaniyatlar shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Har bir xalq o'zi yaratgan madaniyati, urf-odati, boshqaruv va ta'lim tizimi bilan dunyo taraqqiyotida o'z o'rniga ega. Dunyo xalqlariga o'z madaniyatini targ'ib qila olgan xalqlardan biri yunonlardir. Ushbu maqolada yunonlar yaratgan yirik madaniyat va uning dunyo tamaddunida tutgan o'rni hamda yunon mutafakkirlari haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Falsafa, Suqrot, Aflotun, Aristotel, Pifagor, Gippokrat, tibbiyot, teatr, Esxil, tragediya, komediya, Sofokl, adabiyot, Ezop.*

**Annotation:** *Throughout the history of the world's peoples, various cultures have been formed and developed since ancient times. Each nation holds its place in global development through its own culture, traditions, systems of governance, and education. Among the peoples who have successfully promoted their culture to the world are the Greeks. This article discusses the great culture created by the Greeks, its role in world civilization, and Greek philosophers.*

**Keywords:** *Philosophy, Socrates, Plato, Aristotle, Pythagoras, Hippocrates, medicine, theatre, Aeschylus, tragedy, comedy, Sophocles, literature, Aesop.*

**Аннотация:** *На протяжении истории народов мира с древних времён формировались и развивались различные культуры. Каждый народ занимает своё место в мировом развитии благодаря своей культуре, традициям, системе управления и образования. Одним из народов, сумевших распространить свою культуру по всему миру, являются греки. В данной статье рассматриваются великая культура, созданная греками, её роль в мировой цивилизации, а также греческие мыслители.*

**Ключевые слова:** *Философия, Сократ, Платон, Аристотель, Пифагор, Гиппократ, медицина, театр, Эсхил, трагедия, комедия, Софокл, литература, Эзоп.*



## KIRISH

Jahon xalqlarining turfa madaniyatlari doimo bir-biridan oziqlanib, bir -birini to'ldirib kelgan. Qadimgi davrda yaratilib o'zi uchun, qolaversa, boshqa xalqlar ehtiyojlari uchun ham xizmat qiladigan madaniyatlardan biri bu qadimgi yunon ilm -fani hamda madaniyatidir. Olimlar, san'atkorlar va turli soha mutaxassislari uchun ilhom manbai bo'lib, ularni yangidan yangi g'oyalarga, zamonaviy ixtiro va kashfiyotlarga undovchi madaniyatlar ham mavjud. Hozirgi davr madaniyatining turfa xil shakllarining ilk ildizlari antik madaniyatda mavjud edi. Insoniyatning ilk aqliy tasavvurlari, dunyoqarashi va fikrlashini o'zida mujassamlashtirgan turli territoriyadagi xalqlarni bir madaniyat o'chog'i atrofida birlashtirgan xalqlardan biri yunonlardir. Aqliy va badiiy tafakkur ilk bor Yunoniston, keyinchalik Rimda shakllandi. Bu jarayon esa ilk ilm-fan va madaniyat kurtaklarining aynan birinchi bo'lib, shu hududlarda keng quloq yoyishiga sabab bo'ldi. Yunoniston aholisi Egey va O'rtayer dengizi atroflariga yoyilgan edi. Natijada, ularni birlashtirib turadigan O'rtayer madaniyati paydo bo'ldi. Qadimgi yunon xalqlarining bunday ulkan madaniyat egasi bo'lishining asosiy sabablaridan biri bu-qulay geografik zonada joylashganligidir. Keng ma'noda madaniyatning barcha ko'rinishlari shakllana boshladi. Bu jarayonga qadimgi yunonlarning qo'shni mamlakatlar

bilan, birinchi navbatda, o'zlaridan ancha qadimiyroq bo'lgan Misr, Bobil, Hind, Xitoy kabi mamlakatlar bilan uzviy- madaniy aloqalarni o'rnatishi bilan bog'liq. Ulkan dengiz bo'g'ozlari va sohillari atrofida joylashgan yunonlar kemasozlik va savdo-sotiqda juda mohir edilar. Yunonlar qo'shni hududlarga tez-tez sayohat uyushtirishgan. Savdo-sotiqda esa faqatgina tovar va pul munosabatlari bilan cheklanib qolmay, turli ilm-fan yutuqlarini va madaniyatlarini almashinuviga hamda qorishuviga zamin yaratganlar. Turli davlatlarning turfa madaniyatlari va an'alarini o'zlashtirib, boyitib dunyo tamaddunida o'zlarining yorqin ilm-fanini targ'ib qila olgan xalqlardan biri ham aynan yunonlardir.

**Falsafaning shakllanishi.** Fanlarning tizimidagi hal qiluvchi omil ularning falsafadan ajralib chiqishidir. Falsafa haqiqatni umumiy va yaxlit tarzda tushuntirishga intilar ekan, fanlar asta -sekin o'z predmeti va usullarini aniqlab falsafadan mustaqil bo'lib boradi. Natijada, ular alohida bilim sohalari sifatida shakllanadi va yangi muammolarni yuzaga keltiradi. Bu jarayon yangi davrga kelib yaqqol o'z ifodasini topdi; fizika XVIII asrda shakllanib, falsafadan ajralib chiqdi, kimyo XVIII asrda rivojlanadi, biologiya XIX asrda mustaqil fan sifatida shakllanadi. Ya'ni, har bir fanning rivojlanishi falsafaga borib taqaladi, falsafa esa dastlab Yunonistonda shakllana boshlagan. Ilk fanlarning dastlabki kurtaklari shakllana boshlagan



Yunon madaniyatida falsafa fani alohida o‘ringa ega. Falsafa bu insoniyatning ilk aqliy tasavvurlari aks etgan fan. Antik yunon falsafasida, aynan klassik davrda, falsafaning rivojlanishi o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Uch faylasuf, Suqrot, Aflotun va Aristotel antik falsafani yaratdilar. Falsafada Suqrotning asosiy xizmati shundan iborat bo‘ldiki, u haqiqat mezonini anglashda sofistlardan ancha ilgari ketdi. Suqrotning fikricha, “insondagi aniq bir metod o‘z-o‘zini bilishdan iboratdir”. Boshlang‘ich nuqta qilib olgan asosni Suqrot aforizm tarzida: “Men hech narsa bilmasligimni bilaman”, -deb ifodalagan edi. Aynan shu qoida uni g‘arazli fikrlar aytishdan ehtiyot qilardi. Bilish fikrlovchi va harakat qiluvchi vujud sifatida o‘z-o‘zini sinchiklab analiz qilishdan boshlanardi. Suqrot maktabalarda dars bermagan, ma‘ruzalar ham o‘qimagan. Afinada, bozorda odam gavjum bo‘lgan joylarda yurib shogirdlari bilan suhbatlashgan va asarlari ham aynan shogirdlari orqali yetib kelgan. Lekin Suqrot shunga qaramay, butun yunon falsafasida o‘zining munosib o‘rniga ega. Haqiqatni bilish mumkin emas deb o‘ylovchilardan farq qilgan holda, Suqrot: “haqiqat faqat bahs - munozaralarda bilinadi”, -deb hisoblardi<sup>16</sup>. Suqrot - yunon falsafasida ajralmas bir bo‘lakka aylangan shaxs. Suqrotning falsafiy qarashlarisiz yunon olamini tasavvur qilish qiyin. Umumiy jihatdan olganda, falsafa

dialogdan foyda oladi. Ayniqsa, Aflotun misolida oladigan bo‘lsak, uning falsafasi matematika va astronomiya usulini progressiv tushunishga asoslangan.<sup>17</sup> Aristotel esa ko‘pgina sohalarda matematikaning yutuqlaridan foydalanadi va ko‘pgina fanlarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligini hosil qiladi. Falsafaning tub mohiyati ham aslida shunda. Er. avv V asrda Yunonistonning Afina va boshqa polislaridagi shart-sharoit suxandonlikning tinglovchilarni va suxandonlarni ishontirish san‘atini egallash ehtiyojini tug‘dirdi. Ana shu ehtiyoj natijasida vujudga kelgan idealistik falsafa atoqli faylasuf Aflotun (Platon 427-347) asarlarida yanada rivojlantirildi. Platon yunon falsafasida o‘z g‘oyalari bilan chuqur iz qoldirdi. Uning 25 ga yaqin nusxadagi miniepigrammalari hozirgacha yetib kelgan. Bundan tashqari, 23 asl nusxadagi va 11 ta uning qalamiga mansub deb taxmin qilinadigan suhbat, “Suqrot madhi” deb nomlangan nutqi va 13 ta maktubi ma‘lum. Platonning asosiy suhbatlari: “Protagor”, “Fedon”, “Parmenid”, “Teztet”, “Timey”, “Kritiy”, “Laxet”, “Menon”, “Davlat”, “Siyosatdon”, “Qonunlar”, “Filibi”, “Fedr”.<sup>18</sup> Platonning Atlantida to‘g‘risidagi hikoyasi keyingi madaniyatlarning halovatini buzib,

<sup>17</sup> Βιβλιογραφική αναφορά: Καλφάς, Ι.Ι. (2022). Μελετώντας τον ουρανό. Φιλοσοφία και επιστήμη στην αρχαία Ελλάδα, σελίδα-6

<sup>18</sup> Ҳақиқат манзаралари. 100 муштор файласуф/ тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар -“Янги аср авлоди”-Т- 2013, Б- 77.

<sup>16</sup> Ёрқин ТУРОПОВ-"Қадимги Юнонистон ва Рим маданияти"-“Наврӯз”-Тошкент 2013, Б-17



avlodlarining ichiga g'ul'g'ula soldi. Klassik davr madaniyatida yunon mutafakkirlari o'rtasida dunyoning mohiyati va insonlar haqida bilimga ega bo'lish borasida qizg'in bahslar avj oldi. Yaratuvchi xudolar va ma'budlar mavjudligi rad etilib, ular tushuntirishlarni boshqa joydan qidirdilar. Ba'zi mutafakkirlar moddiy dunyoga e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqalari esa abstraksiyaga (mavhumlikka) yuzlandi<sup>19</sup>. Natijada ikki qarama-qarshi qizg'in bahs yuzaga keldi. Buning mahsuli sifatida mustaqil dunyoviy ilm-fan paydo bo'la boshladi Yunon faylasufi va matematigi Pifagor: "raqamlar - hamma narsaning asosi", - deb ta'kidlagan. Keyinchalik Platon bu dalilni yanada rivojlantirib, butun borliq va barcha insoniy bilimlar orqali vaqt va makondan mustaqil ravishda mavjud bo'lgan raqamlar kabi mutlaq tushunchalarga asoslanishini ta'kidladi. Platon bularning har birini "g'oya"- deb atadi, bu so'z yunonchada "shakl", "forma" va "ko'rinish"- degan ma'nolarni anglatadi. Platon o'zining qator dialoglarida Suqrotning ko'pgina nazariyalarini tushuntirishga harakat qiladi.<sup>20</sup> Pifagor falsafasining tamal toshi raqamlar haqida mistik ta'limotga asoslangan bo'lib, "raqamlar dunyoni boshqaradi, raqamlar dunyoning asosidir", - degan g'oyani ilgari suradi. Raqamlar Pifagorchilar uchun

uyg'unlikka xizmat qiladigan sabablardan biri bo'lgan. Uning fikricha, aynan raqamlar orqali inson bilimining turli sohalari geometriya, sonlar nazariyasi, astronomiya va arifmetika orasida ko'prik qurish mumkin bo'lib, raqamlarsiz bu uyg'unlikka erishib bo'lmaydi. Matematika tarixida Pifagor geometriyaga "sistemik isbot" tushunchasini kiritib, uni fan darajasiga ko'targan. To'g'ri chiziqli shakllar geometriyasini tuzgan, to'g'ri burchakli uchburchak haqidagi teoremani isbotlagan (bu teorema Pifagordan 1500 yil oldin Misr va Bobilda isbotsiz ma'lum edi.) Juft va toq, tub hamda murakkab sonlar, arifmetik, geometrik va gormonik proporsiyalar ham Pifagor nomi bilan bog'lanadi. Pifagor jahon ilm-fani tarixidagi buyuk matematikdir. Tarix otasi - Geradot Pifagorni "buyuk sofist" ya'ni buyuk donishmand deb atagan.

Platonning "G'oyalar" konsesiyasini buyuk matematik va faylasuf Aristotel rad etgan. Aristotel "Isbotlash deganda men haqiqiy bilim beradigan argumentni tushunaman, bularning barchasi faktlar va narsalarni bilish hamda kuzatishga asoslangan. Lekin men shuni ham aytamanki, hamma real bilimlar ham amalda isbotlanishi yoki namoyish etilishi mumkin emas", - deya ta'kidlaydi. Ya'ni Aristotelda "tabiatdagi barcha real narsalar va bilimlar ham birdek isbotlanmaydi", - degan fikr tug'ilgan. Shu tariqa klassik davr yunon mutafakkirlarida g'oyalar qarama-qarshiligi, qaysidir jihatlari bilan esa bir-

<sup>19</sup> R. Tignor, J. Adolman - "Worlds Together - Worlds Apart" - Norton & Company New-York, London, 197-198 pp

<sup>20</sup> R. Tignor, J. Adolman - "Worlds Together - Worlds Apart" - Norton & Company New-York, London, 198 pp



birini to'ldiradigan ilm- fan qarashlari paydo bo'lgan. Aristotel o'z yondashuviga sodiq qolgan holda, 150 dan ortiq yunon shahar-davlatlaridan fanning turli sohalariga oid dalillar to'pladi va "Siyosat" asarida shahar jamoalarining yaxshiroq faoliyat ko'rsatishiga imkon beradigan institutsional choralar va axloqiy xulq-atvor qoidalarini taklif qildi. Aristotel har tomonlama chuqur fikrli odam edi. U o'zini ko'rsatmagan bilim sohasi yo'q desa ham ham bo'ladi. Aristotel 3 tipdagi davlat monarxiya, aristokratiya va demokratiya mavjud degan xulosaga kelgan. Shu bilan birga u, agar faqat xalqning baxt-saodati bilan qayg'ursa, mazkur davlat shakllarining hammasi ham yaxshi deya hisoblagan. Aristotel asarlarida o'sha zamon madaniyating yutuqlari va kamchiliklari aks ettirilgan. Aristotel qadimgi Yunonistonning eng yirik estetigi ham edi. U mashhur "Poetika" ni ya'ni san'atning mohiyati va turlarga bo'linishi haqidagi kitobni yaratdi. Aristotel "Poetika" si san'atning tabiati haqidagi undan keyingi hamma ta'limotlar uchun asos bo'ldi.

**Tibbiyot.** Er. avv V asr ikkinchi yarmidan Yunonistonda kohinlar tibbiyoti o'rniga, aniq kuzatishlarga asoslangan shifokorlar tibbiyoti vujudga keldi. Klassik davrda boshqa sohalar kabi tibbiyot ham ancha rivojlandi. Gippokrat "tibbiyotning otasi" sifatida shuhrat qozongan. Gippokrat maktabidagi tabiblar tajriba, kuzatish usuliga tayanib, davolashda dieta, gigiyena kabi usullarni keng qo'llagan. Aynan shu

davrda Appoloniyalik Diogen qon aylanish tizimini o'rgandi. O'sha davr tibbiy bilimlari to'g'risida 53 traktatdan iborat "Gippokrat korpusi"- deb ataladigan tibbiy bilimlar yaratilgan.<sup>21</sup> To'plam tibbiyotning ilk namunasi sifatida muhim manba bo'lib xizmat qildi.

**Teatr va adabiyot.** Tarixdan ma'lumki, har bir davlatda ilm-fanning taraqqiy etishi va rivojlanishi ko'p jihatdan hukmdorlarning ilm-fanga e'tiboriga va davlat boshqaruv tizimiga bog'liq. Aynan Afina hukmdori Periklning oqilona siyosati va demokratik islohotlari aholiga va ilm-fan ahliga qulaylik yaratdi. Teatr-jamiyatdagi bo'layotgan voqea-hodisalarni hajv yo'li bilan, turli obrazlar orqali sahnada jonlantirish edi. Yer yuzidagi ilk teatr Yunonistonda er. avv V asrda paydo bo'ldi. Afina davlati o'z fuqarolarining ma'naviy barkamolligiga jiddiy e'tibor qaratishgan. Hattoki, fuqarolarga teatrlarga kirishi va bayramlarda ishtirok etish imkoniyati yaratib berilgan. Tomoshalarga kambag'al kishilarning kirishi uchun davlat teorikon-teatrda kirish uchun ikki obol miqdorida pul to'lovini ham joriy etgan. Afinada yig'inlarda so'zga chiqishni biladigan notiqlar, qonunlar loyihasini qabul qilishga xalqni ko'ndira oladigan, hech qanday mansabga ega bo'lmagan kishilar ham xalq ishonchiga sazovar bo'lganlar. Perikl taklifi bilan oddiy aholiga teatrga kirish imkoniyatini beradigan nafaqa joriy qilinishi ham Afinada qolgan hududlarga nisbatan

<sup>21</sup> R. Rajabov- "Qadimgi dunyo tarixi"- "Fan va texnologiya"- Toshkent 2009, 283-b



ancha erta demokratiyaning boshqaruv shakli vujudga kelganligini ko'rsatadi. Er.avv IV-VI asrlardan Esxil, Sofokl, Aristofan tragediyalarini teatrda tomoshabinlar maroq bilan ko'rishgan. Esxilning "Zanjirband Prometey", "Forslar" tragediyalari, Aristofonning "Tinchlik", "Suvoriylar" kabi komediyalarida urush voqealari va o'sha davrdagi illatlarni tasvirlagan<sup>22</sup>. Bu ijodkorlarni xalq hurmat qilib Afina teatriga haykallarini o'rnatganlar va ularni "donishmandlik yo'l boshchilari" deb ataganlar. Butun qadimgi yunon madaniyati singari, tragediya ham mifologiya asosida paydo bo'lgan. Klassik davrda mifologiya polis ideologiyasini tarqatuvchi va ifodalovchi vazifasini bajargan. Shoirlar o'z tragediyalarida o'sha zamondagi yunon madaniyatini to'liqlantirgan g'oyalarni jo qilganlar. Bu hol Qadimgi Yunonistonda tragediyalarning g'oyat katta shuhrat topishiga sabab bo'ldi va ularni o'sha davrning jonli va erkin hujjatiga aylantirgan. Er.avv VI-V asrlarda Afinada eng atoqli yunon shoirlari yashab, ijod qilganlar. Ular faqat yunon klassiklari emas, balki jahon adabiyotining ham klassiklaridir. Esxil (525-456) yunon tragediyasining "otasi" edi. Esxil yashagan davr tiraniyaga qarshi kurash va quldorlik demokratiyasining ravnaq topish davri edi. Esxilning eng mashhur tragediyasi "Zanjirband Prometey" dir. Tragediya asosan mifologik uslubda yozilgan va unda er.avv VI asrning

oxirida Afinada ag'darilib tashlangan tiraniyaga qarshi norozilik aks etgan. Ushbu tragediyada o'zini oqlamaydigan, hokimiyatning bir shaxs yoki kichik guruh qo'lida to'planishi, qonun va xalq irodasini hisobga olmasdan, o'zboshimchalik va zo'ravonlik bilan boshqariladigan tizim qoralanadi. Esxilning bu tragediyasi xalqning ong-u shuurida tiranlarga nisbatan katta norozilikni uyg'otdi. Teatr sahnalari mualliflarining asosiy xizmati jamiyatdagi har qanday noqulay tizim va ko'rinishni tanqid qila olganligida edi. Bora-bora teatr jamiyat ko'zgusiga aylanib borgan. Afinaning gullab-yashnagan davrida yashagan Sofokl 120 ta tragediya yozgan. Ulardan yettitasi hozirgacha yetib kelgan.<sup>23</sup> Sofokl insonning ijodiy mehnatini madh etadi. Sofoklning eng mashhur tragediyasi "Shoh Edip" dir. Ushbu tragediyada insonning taqdir oldidagi ojizlik g'oyasi yaqqol tasvirlangan. Yunon tragediyasi o'z kuchi, favqulodda ifodaliligi, g'oyaviyligi va obrazlarining zabardastligi jihatidan dramaturgiyaning eng ommabop yo'nalishidan biridir.

Yunon komediyasining klassigi Aristofandir (er.avv 450-388). Uning komediyalari o'sha davrdagi yunon hayotining haqiqiy ensiklopediyasidir. Aristofon komediyalarida Peloponnes urushi davridagi va tinchlik davridagi voqealar aks etgan. Aristofan urush harakatlarida, ayniqsa, ko'p azob chekkan

<sup>22</sup> Ёрқин ТУРОПОВ-"Қадимги Юнонистон ва Рим маданияти"- "Наврўз"-Тошкент 2013, Б-21

<sup>23</sup> R.Rajabov-"Qadimgi dunyo tarixi"- "Fan va texnologiya"-Toshkent 2009, 280-b



qishloqning oddiy aholisini manfaatlarini aks ettirgan. Aristofan o'zining ko'pgina komediyalarida urushga jon-jahdi bilan qarshi chiqqan. Uning komediyalarida mashhur siyosiy arboblardan ham, hunarmandlardan ham, dehqonlardan ham, qullardan ham ko'rinadi<sup>24</sup>. Aristofanning "Tinchlik", "Ayollar xalq yig'inida" komediyalarida ham asosiy siyosiy mavzular yoritiladi. Yuqorida keltirilgan komediya va tragediya mualliflari yunon teatri sahnasi uchun asosiy asarlarni yaratganlar. Ularda ilgari surilgan g'oyalar chuqur ahamiyat kasb etib, xalq hayotidagi jarayonlarni to'liq yoritib bergan. Dastlabki yunon teatrlariga 17-25 ming tomoshabin joylashgan. Qadimgi Yunonistonda teatr shunchaki ko'ngil ochish emas, balki muqaddas burchni ado etish hisoblangan. Unda har bir ishtirok etishi shart bo'lgan. Teatr fuqarolar uchun ma'naviy ozuqa vazifasini o'tagan. Teatr tarbiya maktabi bo'lib, unda qo'yiladigan pyesalarda axloq, siyosat kabi eng muhim masalalar yoritilgan. Shuning uchun ham yunonlar teatrnii "katta yoshdagilar maktabi" -deb atashgan. Teatr tamoshalari yiliga katta bayram kunlarida bir necha marta qo'yilib, qatorasiga bir-necha kun davom etgan. Teatr san'atining rivoji mashhur yunon adiblari ijodi bilan uyg'un bo'lgan.

Badiiy adabiyot, eng avvalo Yunonistonda poeziya janrida rivojlangan. Yunon madaniyati taraqqiyotida Qadimgi Sharq

madaniyatining ham ta'siri kuchli bo'lgan. Yunonlar o'zlarining Kichik Osiyo shaharlari orqali Sharqning boy madaniyati bilan tanishishi, ularning sayohatga bo'lgan ulkan qiziqishi ularning ilm-fani shakllanishida asosiy vazifalarni bajardi. Yunonlarning juda katta, uzoq hududlarga tez-tez sayohat qilishi natijasida ko'pgina dostonlar va afsonalar ham yaratilgan. Bu shubhasiz, adabiyot sohasining vujudga kelishi uchun zamin yaratgan. Klassik davrning mashhur shoirlari Feognit, Solon, qisman Arxielay siyosat bilan shug'ullangan edilar. Bu davrdagi Ezop masallari adabiyotda demokratik yo'nalishni aks ettirib, ijtimoiy adolatsizlikni qoralashi bilan ajralib turadi. Frigiyalik donishmand Ezopning peshonasiga taqdir qullik qismatini bitgan bo'lsa-da, u o'z ijodining eng gullagan damlarini yarata olgan. Ezop 400 ga yaqin masallar muallifi bo'lgan. Ezopning nomi birinchi bo'lib Geradot asarlarida tilga olingan. Geradot Ezopga quyidagi 4 ta sifatni keltirgan:

1. Ezop mashhur masalchi edi.
2. Samos orolida yashagan va Iadmon ismli shaxsning quli bo'lgan.
3. Ezop taxminan 560-yillargacha yashagan.
4. Ezopni Delfada o'ldirishgan.<sup>25</sup>

Ezop qul tarzida hayot kechirishiga qaramay, shu holatida ham, qullik qobig'idan chiqib, o'z ma'naviy dunyosini yarata oldi.

<sup>24</sup> Ёрқин ТУРОПОВ-"Қадимги Юнонистон ва Рим маданияти"- "Наврўз"-Тошкент 2013, Б-23

<sup>25</sup> Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф/ тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар -"Янги аср авлоди"-Т- 2013, Б- 12.



Ezopning tanasi qullikni his qilsada, ichki dunyosi ma'naviy yetuk edi. U inson har qanday vaziyatda o'zini yo'qotmaslikni targ'ib qilib, yunon adabiyotida o'z masallari bilan chuqur iz qoldirdi. Ezop matonat timsoli sifatida tarixga kirgan shaxsdir.

Endilikda yirik daryo havzalari o'z yetakchiligini chekkaroq mintaqalarga bo'shatib berishdi. Bu esa muqobil va yangi tartiblar izlayotgan madaniy va intellektual yuksalish avlodiga yo'l ochdi. Ushbu chegara hududlari rivojlangan sari, shahar-davlatlar (O'rtayer dengizi dunyosida), kichikroq hududiy davlatlar (Xitoyda) va kichikroq qirollar va oligarxiyalar tomonidan (Janubiy Osiyoda) kuchaytirilgan ulkan ijtimoiy dinamikani yuzaga keltirdi. Yunonlar kichik strategik hududda turib, o'zlarining boy madaniyatini katta chegaradagi hududlarga yoya oldi. Keyinchalik, o'z harbiy yurishlari davomida Aleksandr Makedonskiy yunon (ellin) madaniyatini butun sharq dunyosiga yoydi. Ushbu davrda daryo havzasi sivilizatsiyalaridan

**Xulosa.** Dunyo xalqlari tarixidagi har bir madaniyat insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega. Madaniyat tushunchasiga ega bo'lish uchun xalqlar aqliy rivojlanishning ma'lum bosqichlarini bosib o'tadi. Er. avv I ming yillikda jahon madaniyatlari almashinuvi yuz berdi. butunlay farq qiladigan dunyoqarashga ega bo'lgan nufuzli mutafakkirlar maydonga chiqdi. Yunon faylasuflari tabiat, siyosiy dunyo hamda insoniy munosabatlar va qadriyatlar haqida yangicha qarashlarni taklif qildilar. bularning barchasi diniy emas, balki dunyoviy g'oyalarga asoslangan edi. Xulosa qilib aytganda, yunonlar birinchilardan bo'lib diniy va dunyoviy bilimlarni alohida-alohida rivojlantira boshlagan xalqdir. Ular yaratgan sivilizatsiya va madaniyat ko'pgina yangi madaniyatlarni paydo bo'lishiga asos yaratdi. Yunonlar o'zlari borgan hududdagi har bir jarayonni o'zlashtirib, boyitib o'zlarining yaxlit bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniyatini yaratib ilm -fanni rivojlantirdilar.

## FOYDALANILAGAN ADABIYOTLAR:

1. Ё.ТУРОПОВ, Қадимги Юнонистон ва Рим маданияти, "Наврўз"-2013
2. R.Rajabov, Qadimgi dunyo tarixi, "Fan va texnologiya"-2009
3. Ҳақиқат манзаралари.100 мумтоз файласуф/ тақдирлар, ҳикматлар, афоризмлар -"Янги аср авлоди", Т- 2013
4. Βιβλιογραφική αναφορά: Καλφάς, Ι.Ι. (2022). Μελετώντας τον ουρανό. Φιλοσοφία και επιστήμη στην αρχαία Ελλάδα [Master manual]. Κάλλιπος, Ανοικτές Ακαδημαϊκές Εκδόσεις. <https://dx.doi.org/10.57713/kallipos-138>
5. R.Tignor, J. Adelman, Worlds Together, Worlds Apart, W. W. Norton & Company, New York, London .